

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilg'or va zamonaviy metodikalarni qo'llash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi

// 27.05.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-memorandum>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorligida 2022-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Bunga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda tomonlarning kelishuviga asosan nazorat tadbirlari tashkil qilinadi, "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida har yili qabul qilinadigan Davlat dasturlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlarini belgilash, kimyo sanoati sohasidagi korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflar hamkorlikda ishlab chiqiladi, Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga olib keluvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan bildirilgan takliflarni qonunchilikka kiritish bo'yicha tegishli choralar ko'riladi. Shuningdek, jamiyat xodimlari agentlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi doirasida tashkil etiladigan targ'ibot va profilaktik tadbirlar, davra suhbatlari, xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi uchrashuvlar, muhokamalar va seminarlarga taklif etiladi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi doirasida jamiyat tomonidan o'tkaziladigan muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda agentlik xodimlari muntazam ravishda ishtirok etishadi. Qolaversa, "O'zkimyosanoat" AJ tizimiga nomzodlarni ishga qabul qilish, lavozimga tayinlashda korrupsion xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida nomzodlarni ishga qabul qilish jarayoni ochiq tanlov asosida onlayn translyatsiya qilib boriladi. Shu bilan birga, jamiyat tizimida xodimlarning belgilangan qonunchilik talablarini qo'llay olishi, ularning professionalligi va tezkorligi hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllanganlik darajasini baholab borish uchun "Sirli mijoz" yoki "Sirli murojaatchi" monitoring tadbirlari tashkil etiladi.

Ta'kidlab o'tish lozim, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasidagi ishlarni muntazam va tizimli davom ettirishga alohida ahamiyat qaratiladi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Komplayens xizmati tomonidan mazkur sohada ustuvor yo'nalishlar, aniq maqsadlar va vazifalar belgilab olingan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati